

**ALISHER NAVOIYNING “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONI XUSUSIDA****Ubaydullayeva Umida Abdushukur qizi***Sharof Rashidov nomidagi SamDU tayanch doktoranti***ARTICLE INFO.****Annotatsiya**

**Kalit so’zlar:** So’z, Xamsa, so’z mulkining sultoni, xamsanavist, Layli, Majnun, Panj ganj.

*Ushbu maqolada buyuk bobomiz, so’z mulkining sultoni, Alisher Novoiy qalamiga mansub bo’lgan, “Xamsa”ning uchinchi dostoni bo’lmish «Layli va Majnun» dostoni haqida so’z yuritilgan..*

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

“Layli va Majnun” yaqin va O’rta Sharq xalqlari orasida eng keng tarqalgan ishq qissalaridan biridir. “Layli va Majnun” arab xalqlari orasida keng tarqalgani va g‘oyat mashhur bo‘lgani haqida akademik I. Yu. Krachkovskiy shunday yozgan edi: “Sharqda Layli va Majnun G’arbdagi Romeo va Julyettaga nisbatan mashhurroqdir”. Ibn Qutayba, Al-Johiz, Abu Bakr al-Volibiy va boshqa arab olimlarining asarlarida Layli va Majnun haqidagi turli-tuman rivoyatlar keltirilgan. Badiiy adabiyotda esa Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Ashraf, Jomiy, Amir Shayxim Suhayliy qalamiga mansub dostonlar yaratildi. Turkiy tilda esa Gulshahriy, Oshiq Posho, Shahidiy kabi shoirlar Layli va Majnun orasidagi ishq sarguzashtlari haqida o‘z dostonlarida ayrim parchalar berdilarki, “bu parchalar Layli va Majnun afsonasining turkiy tildagi dastlabki kurtaklari sifatida ahamiyatlidir”.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy “Xamsa”sining uchinchi dostoni “Layli va Majnun” 1484-yilda yozilgan bo‘lib, 38 bob, 3623 baytdan iborat. Doston bir necha an’anaviy boblar bilan boshlanadi. Sharq mumtoz adabiyoti o‘zining aniq an’anasiga ega bo‘lib, unga binoan doston hamd, munojot, na’t kabi maxsus boblar bilan boshlanadi. Navoiyning “Layli va Majnun” dostonining I bobi ham xuddi shu an’anaga asoslangan holda Xudo madhi, ya’ni hamdga bag‘ishlangandir. Unda shoир davrning buyuk so’z ustasi va faylasuf olimi sifatida olamning yaratilishi, tun, kun, oy, quyosh, yulduzlarning, yil fasllari va ulardagi tabiatning o‘ziga xos jilolari, insonning tabiat ichida yaratilishi, yo‘qdan bor, bordan yo‘q bo‘lishi va boshqa juda ko‘plab misollar orqali Xudoning beqiyos qudrati va ulug‘ligining ifodasi ekanini ta‘kidlab, Unga hamd-u sanolar aytadi. U o‘zining tajallisi bilan hammaning dilini zavqlantiradi. Navoiy yaratuvchining “har soridagi tajallisi jahonda Layli bo‘lib ko‘rinadi, jilva qiladi, uning bu xususiyati esa yaratilganlarni Majnun qilmoqdir”, – deb yozadi:

Ey har sorikim, qilib tajalli,

Ul mazhar o‘lub jahonda Layli.

Ey oniki Layli aylab otin,

Majnun qilmoq qilib sifotin .

2-bob Munojotni o‘z ichiga oladi. Navoiy Yaratganga murojaat qilar ekan, seni qancha ulug‘lab ta’riflaganim bilan sening buyukliging ulardan yuzlab marotaba buyukdir, deydi:

Har nav’ki, aylasam xitobing,

Yuz oncha biyik durur janobing .

Navoiy Allohnini madh etar ekan, gunohlarini kechirishini iltijo qiladi, Undan madad va ko‘mak so‘raydi. “Yo Rab, eshicingda ul gadomen, Kim, boshtin-ayoqqacha xatomen” , – deya buyuk tan olish qiladi Navoiy.

Dostonning 3-bobi Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) madhiga bag‘ishlangan bo‘lib, bu bobda Navoiy Muhammad payg‘ambar (s.a.v.)ni payg‘ambarlik osmonining quyoshi deb ataydi. Payg‘ambar va uning oilasi, avlodlari haqiga har ezgu soatda yuz minglab salovotlar va vasflar aytamiz, deydi shoir.

4-bob Me’roj tuni ta’rifida bo‘lib, Navoiy bu tunning mo‘jizaviyligini, Muhammad payg‘ambar (s.a.v.)ni Buroq otiga minib, ko‘kka ko‘tarilishini go‘zal o‘xshatishlar bilan tasvirlaydi:

Oy bordi-yu keldi mehri raxshon,

Dur bordi-yu keldi bahri ummon.

Borurda edi chu dastayi vard,

Chun keldi bahori nozparvard.

5-bob so‘z ta’rifini hamda Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy madhidan iborat. “So‘z gavhari vasfidakim, gavhar so‘zi aning qoshida gavhar ollida bir qatra suvdek bo‘la olg‘ay, bir necha so‘z surmoq va Ganja hakimi ta’rifidakim, ganji Qorun aning “Panj ganj”i ollida vayronadek ko‘rungay – ganjfishonliq qilmoq va Hind sohirinikim, Kashmir jodulari aning ollida ip esha olmaslar – aning gavhari silkiga tortmoq va o‘z nazmining churuk rishtasin va uzuk torin ham alarg‘a ulamoq”. Bu bobda Navoiy o‘zidan avvalgi salaflarining so‘zdan qanday foydalanganlari haqida, so‘zning qimmati, uni hech qanday dur-u javohirlar bilan tenglashtirib bo‘lmasligini, so‘z bir dengiz bo‘lib uning tubida cheksiz ma’no olami yashirinib yotganini ta’kidlaydi. Qorun – behisob boylikka ega bo‘lgan diniy-afsonaviy shaxs. Navoiy o‘zining “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida Qorunni Muso payg‘ambar qarindoshlaridan ekani, ilm-u fazilatda o‘tkir, ayniqsa, kimyo fanida mohir, qobiliyatli kishi bo‘lganini yozadi. Keyincha, u ko‘p oltin to‘plab, katta boylikka ega bo‘ladi. Xazinasi bilan birga uning xasisligi, imonsizligi osha boradi. U Xudoni ham tan olmay qo‘yadi. Musoning uni dinga, e’tiqodga chaqirishga ham parvo qilmaydi. Natijada Musoning duoyi badiga uchraydi, tamomi xazinasi, boyligi bilan uni yer yutadi . “Panj ganj” (“Besh xazina”) – Nizomiy Ganjaviy (1141-1204) ning yaratgan dostonlari ko‘zda tutilmoqda. Navoiy o‘zining “Xamsa”si tarkibidagi har bir dostonning kirish qismida Nizomiy va uning “Panj ganj”ini katta hurmat va samimiyat bilan tilga oladi. “Hind sohiri” – xamsachilik an’anasining davomchisi Amir Xusrav Dehlaviy ko‘zda utiladi .

So‘zga ta’rif berar ekan, Navoiy har qanday ibtidoning avvali so‘z ekaniga urg‘u beradi:

Kim, bo‘ldi chu amri “kun” huvaydo,

Bo‘ldi “fayakun” g‘ulusi paydo.

Bas avvalg‘i sado so‘z o‘lg‘ay,

Har savtqa ibtido so‘z o‘lg‘ay.

Navoiy shuningdek, so‘zni gavharga, mavj urgan ummonga, tuganmas xazinaga qiyoslaydi. Bobning keyinida Navoiy xamsanavis ustozlari Nizomiy va Dehlaviyni yod etar ekan, Nizomiyni “Nazm ahlining afsah ul-kalomi”, Xusrav Dehlaviyni “sohiri Hind” deb ulug‘laydi. Ularning asarlariga cheksiz hurmat bildirar ekan, o‘zi ham bu asarlarga tenglasha oladigan asar yozish niyatida ekanini bildiradi.

6-bob Navoiyning ustozi Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy madhiga bag‘ishlangan. Navoiy ustozi haqida so‘zlar ekan, “Laqabi ham jahonga nur taratadi. Zoti bilan ham nuran a’lo nурdir” deydi:

Sochib laqabi jahon aro nur,

Zoti bila nurun alo-nur.

Sulton Husayn Boyqaroga bag‘ishlangan 7-bobda Navoiy Husayn Boyqaroni din himoyachisi, sahovatpesha, ilmi qadrlaydigan, adolatli shoh, shuningdek, qanchalik qudratli bo‘lsa, shunchalik nozik ko‘ngil sohibi sifatida tasvirlaydi:

Sher uzra qilichi barq chopib,

Mo‘r o‘lsa, shikasta yoshi oqib.

Tig‘i gar etib fano jahonni,

Xulqi tuzotib yano jahonni.

8-bob shahzoda Badiuzzamon ta’rifida bo‘lib, shoir shahzodaning saxovati, adolatini go‘zal tashbehtar bilan tasvirlaydi.

Doston muqaddimasining so‘nggi 9-bobi tun ta’rifidadir. Mazkur bob asarning asosiy qismiga kirish vazifasini ham bajargan. Darvoqe, “Layli” so‘zi ham “tun” ma’nosini bildiradi. Shoir qorong‘u tunda xayol otiga minib, sayrga chiqadi. Tunrang xayol oti jahonda ko‘p yugurdi-da, nihoyat, arab tuprog‘iga yetib, to‘xtadi, ishqning hidini sezgan zahoti ot ham chopishdan to‘xtadi. Navoiy Layli va Majnun ta’rifini keltirar ekan, bu ilohiy ishq qissasini so‘zlab berishga ahd qiladi:

Ul nav’ki, hotif etti irshod,

Men ham qildim fasona bunyod.

10-bobdan dostonning asosiy qismi boshlanadi. Bani Omir qabilasida uzoq kutilgan farzand – Qays dunyoga keladi. Qaysning tug‘ilishi, ulg‘ayishida ham ilohiy taqdir sezilib turardi. Juda kichik chog‘idan o‘tni ko‘rganida uni ishq o‘ti gumon qilib, yashirinchcha unga talpinardi. To‘rt yarim yashar bo‘lganida otasi uni o‘qitish niyatiga tushadi va Layli qabilasiga o‘qishga beradilar. Bahor faslida bog‘ sayrida Laylini uchratgan Majnun hushidan ketadi, shu tarzda go‘zal ishq qissasi voqealari rivoj topadi.

Majnun (Junun) telba, devona, jinni degan ma’noni beradi. Sharqdagi eng mashhur qahramonlardan. Qadimiylar arab manbalarida keltirilishicha, Majnun tarixiy shaxs bo‘lib, Arabistonida Bani Omir qabilasidan bo‘lgan. Majnunning oshiqlik qismati haqida Sharqda juda ko‘p rivoyatlar to‘qilgan. U Nizomiy, Dehlaviy, Navoiy kabi ulug‘ san`atkorlarning ijodida fojiaviy qahramon sifatida o‘rin egallagan. Xuddi shu fikrlar Layliga ham tegishlidir. Layli arab manbalarida keltirilishicha kichik epizod obraz hisoblangan. Ibn Qutayba o‘zining “Kitob ush-she’r vash-shuar” nomli asarida Layli haqida so‘zlash Majnunni gapirtirish uchun asosiy kalit edi, deydi. Nizomiydan boshlab, bu fikr mahorat bilan rivojlantirildi va Layli dostonda mukammal, yetuk, barkamol ayol obraziga – sevgi va vafo ramziga aylantirildi. Ayni vaqtida dostonda Navoiy Layli va Majnun obrazlari orqali majoziy oshiqlar shuqlar timsolini gavdalantirgan .

Xulosa qilib aytganda, “Layli va Majnun” dostoni ilohiy ishq kuylangan g‘oyat go‘zal asardir.

Navoiy o'sha davrning eng dono kishilaridan biri edi. Uni iloh ilmidan chetlab tasavvur qilish mumkin emas, albatta. Navoiyning buyukligi shundaki, "Layli va Majnun"da garchi tasavvufga oid talqinlar bo'lsa-da, voqealar zamirida kishi qalbini larzaga soluvchi fojiaviy-majoziy ishq qismati, ijtimoiy adolatsizlik tasviri shu qadar hayotiy tasvirlanganki, bundan shoirning o'zi ham qattiq iztirobga tushadi va "Yig'lay-yig'lay tugatdim oxir" deb qissani bitiradi. "Layli va Majnun" dostoni dunyoviy adabiyotning eng go'zal namunalaridan biri hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Alisher Navoiy, mukammal asarlar to'plami. VII tom, 359 b.
2. Alisher Navoiy. Munojot. T., 1991. (Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi S. G'aniyeva).
3. Alisher Navoiy "Layli va Majnun". -Toshkent, 2020.
4. Alisher Navoiy "Layli va Majnun" (nasriy tabdil). -Toshkent, 2021.
5. N.Komilov va B.Eraliyev. «Ishq otashining samandari», Sharq yulduzi. 1991.
6. D.Yusupova "Layli va Majnun" dostonining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. kh-davron.uz